Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

УДК 372.6(045)
ORCID:0009-0005-3943-6252

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA HAMKORLIKDAGI TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Rajabova Xurshida Hakimovna
Qashqadaryo VPMM Maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: xurshidarajabova46@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, boshlang'ich sinf ona tili darslarida hamkorlikdagi ta'lim muhitini yaratishning ahamiyati haqida yoritilgan. Bugungi kunda o'quvchilarimiz o'z bilimlarini kerakli vaziyatlarda tatbiq etishlari, erkin fikrlashlari va o'zlari uchun notanish yoki yangi bo'lgan vaziyatlarda yechim topishlari uchun ular muloqotga kirisha olish hamda jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Dars davomida o'qituvchi mohirlik bilan o'zi darsga moslab metodlardan foydalanadi bu esa o'quvchilarni darsga qiziqishini faolligini oshirish bilan bir qatorda darsni o'yin texnologiyasi bilan tezda o'rganish imkoniyatini beradi.Har bir pedagog bolalarga darslarini qiziqarli bir-birini takrorlamadigan qilib tashkil etishga harakat qiladi.Buning uchun esa darsliklarda berilgan matn, mashg'ulotlardan samarali foydalanadi.O'yin texnologiyasi asosida o'quvchilarni dars davomida bir-birlariga hurmat, do'stlik, o'zaro hamkorlik qilishga o'rgatish eng samarali usullardan biridir. Qadimgi manbalarda ham hamkorlik texnologiyasi o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda asosan qo'l kelishi haqida bir qancha fikrlar keltirib o'tilgan.Bu fikrlardan bir nechtasi maqolada ham ko'rsatib o'tilgan.Xozirgi axborot asri davrida bolalarni keraksiz axborotlardan asrash ularni yetuk kadr qilib tarbiyalash uchun ota-onalar, mahalla va maktab hamkorligini yo'lga qo'ygan holda birgalikda ishlashimiz samara beradi.

Kalit so'zlar: o'quvchi va o'qituvchi hamkorligini tashkil etish, hamkorlikdagi ta'lim, mustaqil fikrlash, ta'lim-tarbiya.

METHODS OF FORMING A COLLABORATIVE LEARNING ENVIRONMENT FOR STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE LESSONS

Abstract: The article discusses the importance of creating a collaborative learning environment in primary school native language classes. Today, our students need to be able to communicate and have teamwork skills in order to apply their knowledge in the right situations, think freely, and find solutions in unfamiliar or new situations. During the lesson, the teacher skillfully uses methods that are adapted to the lesson, which not only increases the interest and activity of students in the lesson, but also provides an opportunity to quickly learn the lesson using game technology. Each teacher tries to organize his lessons so that they are interesting and not repetitive. For this, he effectively uses the text and exercises provided in textbooks. One of the most effective methods is to teach students to respect each other, be friendly, and cooperate with each other during the lesson using game technology. Ancient sources also mention several ideas about the usefulness of collaborative technology in educating young students. Several of these ideas are also presented in the article. In the current information age, protecting children from unnecessary

information and raising them as mature individuals requires us to work together, establishing cooperation between parents, the community, and the school.

Keywords: organizing student-teacher cooperation, collaborative learning, independent thinking, education.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ СРЕДЫ СОВМЕСТНОГО ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В статье обсуждается важность создания среды совместного обучения на уроках родного языка в начальной школе. Сегодня нашим ученикам необходимо уметь общаться и иметь навыки командной работы, чтобы применять свои знания в правильных ситуациях, свободно мыслить и находить решения в незнакомых или новых ситуациях. На уроке учитель умело использует методы, адаптированные к уроку, что не только повышает интерес и активность учеников на уроке, но и дает возможность быстро усвоить урок с помощью игровых технологий. Каждый учитель старается организовать свои уроки так, чтобы они были интересными и не повторяющимися. Для этого он эффективно использует текст и упражнения, представленные в учебниках. Один из самых эффективных методов — научить учеников уважать друг друга, быть дружелюбными и сотрудничать друг с другом во время урока с помощью игровых технологий. Древние источники также упоминают несколько идей о пользе совместных технологий в обучении младших школьников. Некоторые из этих идей также представлены в статье. В современную информационную эпоху защита детей от ненужной информации и воспитание их как зрелых личностей требуют от нас совместных усилий, налаживания сотрудничества между родителями, обществом и школой.

Ключевые слова: организация взаимодействия ученика и учителя, совместное обучение, самостоятельное мышление, образование.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talabi – o'quvchini faol, mustaqil fikrlaydigan, o'z bilimini o'zi izlab topa oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiylashgan, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayonda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi, ular o'rtasida muloqot va hamkorlikni shakllantiruvchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ona tili fanida beriladigan mashqlar orqali o'quvchilarda nafaqat grammatik va nutqiy ko'nikmalar, balki jamoada ishlash, fikr almashish, o'zaro hurmat kabi ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yosh avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, ularning immunitetini kuchaytirish hozirgi o'ta murakkab davrda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning "…Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1], -degan fikrlari maqsadimizning tasdig'i sifatida biz, ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat

ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir.

Hamkorlikda ta’lim olishning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchi aynan jamoada yoki kichik guruhda o‘zini qay darajada namoyon qila olishiga e’tibor qaratiladi. Ya’ni, hamkorlik muhitining ijodiy salohiyati qanchalik yaxshi ochib berilsa, pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar qanchalik boy va qiziqarli bo‘lsa, o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qiziqishi shu darajada ortadi. O‘quvchi turli vaziyatda o‘z fikrini dadil bayon etadi axborotni qidiradi, olingan ma’lumotlarni ongli va obyektiv baholashni o‘rganadi. Demak, o‘quvchining tashabbuskorlik, optimizm, o‘ziga ishonch kabi shaxsiy fazilatlar takomillashadi. Hamkorlikdagi o‘zaro ta’sir ishtirokchisining subektivligi o‘qituvchining sinfda o‘quvchilarning guruh, jamoa, juftlik faoliyatini tashkil etish qobiliyati bilan ta’minlanadi. Metodik adabiyotlarda guruhlashda quyidagi fikrlarni hisobga olish kerakligi bayon etiladi: hamkorlik ishtirokchilari bilan birgalikda guruhda ishlash qoidalarini ishlab chiqish zarur;guruhlar tarkibi almashib, o‘zgarib turishi kerak;har bir guruhga turli vazifalar (rollar)ni belgilash; guruhlar bajaradigan vazifalar doimo o‘zgarib, almashibturishi kerak; guruhlarda faqat konstruktiv (asosli) tanqidga ruxsat berish mumkin. Bunday holda, o‘qituvchi fassilyatorga aylanadi, ya’ni yordamchi rolini o‘ynaydi, guruh muloqotini ta’minlaydi, guruhlararo muhokama uchun qulay muhit yaratishga hissa qo‘shadi.

Hamkorlikda har bir o‘quvchi ta’lim jarayonining bevosita ishtirokchisi bodishi, bilish faoliyat turlarini ongli ravishda tanlab olishi, fikrlash faoliyati bilan shug‘ullanishi, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganishi, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishi zarur. Hamkorlikdagi ta’lim – zamonaviy dars asosidir. Hamkorlikdagi ta’lim – bu o‘quvchilarning kichik guruhlarda birgalikda ishlashi, qaror qabul qilishi va umumiy natijaga erishishiga asoslangan o‘quv uslubidir. Bu yondashuv:

-o‘quvchilarni ijtimoiy faol shaxs qilib shakllantiradi;

-bir-birini tinglash, tushunish va hurmat qilishni o‘rgatadi;

-o‘z fikrini aniq va mantiqan bayon qilishga undaydi.

Hamkorlikdagi ta’lim mohiyati va pedagogik asoslari.Hamkorlikdagi ta’lim – bu o‘quvchilarni kichik guruhlarda muayyan o‘quv vazifasini bajarish orqali bir-biridan o‘rganishiga yo‘naltirilgan o‘quv shaklidir. Bu yondashuvda o‘qituvchi – yo‘naltiruvchi, motivator sifatida namoyon bo‘ladi. J.Dyui, L.Vigotskiy, J.Piaje kabi olimlarning konstruktivistik pedagogik qarashlari ushbu yondashuvning nazariy poydevorini tashkil etadi.

K.D.Ushiniskiy boshlang‘ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib,uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatdi… Bola ikki-uch yil Ichida shuncha ko‘p narsani o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, yigirma yil qunt bilan metodik jihatdan to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir” [2] -deydi u. Ulug‘ pedagogning bu teran fikriga qaraganda ona tili bir katta muallimdir. Shunday ekan biz maktabdagi ona tili darslariga katta e’tibor qilib adashmaymiz. Ona tili fanining mohiyati ham til vositasida muloqotga asoslangan bo‘lib, hamkorlikdagi ta’lim bu darslar uchun ayni muvofiq metod hisoblanadi.

S.Usmonov ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha mutaxassis. U o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda hamkorlikdagi ta’lim usullaridan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi.Uning fikriga ko‘ra o‘quvchilarni og‘zaki nutqini va yozma nutqini rivojlantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

M.Qodirova ta'limda innovatsion metodlarni tadbiq etish bo'yicha izlanishlar olib borgan. U hamkorlikda ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy faolligi va mustaqil fikrlashi rivojlanishini qayd etadi.

John Dewey – Amerikalik pedagog. Uning "tajribaga asoslangan ta'lim" nazariyasi o'quvchining faol ishtirokini va guruhiy ishlashni asoslaydi.

David Johnson va Roger Johnson – Hamkorlikda o'qitish (cooperative learning) metodikasi asoschilaridan. Ular o'z tadqiqotlarida o'quvchilar o'zaro fikr almashganida bilim samaraliroq bo'lishini ko'rsatganlar.

Robert Slavin – "Student Teams-Achievement Divisions (STAD)" va boshqa

hamkorlikda o'qitish modellarini ishlab chiqqan. U hamkorlikdagi ta'lim motivatsiya, o'zaro yordam va bilimni mustahkamlashni kuchaytiradi degan fikrni ilgari surgan.

"O'z o'rningni top" metodi.

Mavzu bo'yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi. Maqsadi: o'quvchilarda o'z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.Hamkorlikda ishlashga o'rgatish. Vazifasi: o'quvchilarni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil tarzda o'z fikrlarini isbotlashga o'rgatiladi.Hamkorlikdagi ta'limni mustahkamlanadi.

"Qismini top" metodi.

O'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlarga mavzu matni qismlarga bo'lib beriladi. Har bir guruh a'zolari berilgan qismlarni to'g'ri topib, ifodali qilib o'qishadi va hikoya qilishadi. Darslikdagi savollarga javob topiladi.Hikoyani eslab qolgan qismlarini daftarga yozishadi.Bu mashq orqali o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni shakllantirishimiz mumkin.

"Sonlar va bo'g'inlar" metodi.

O'quvchilar bulutlarda berilgan ifodalarni yechib, natijani topadilar. Chiqqan natija to'kilayotgan barglarda aks etgan. Shu barglardagi sonlarni o'sib borish tartibida joylashtiradilar. Barglarning orqa tarafidagi bo'g'inlarni birlashtirib so'ng hosil bo'lgan so'zlarni o'qiydilar. Hosil bo'lgan so'zlardan bajarayotgan mashqdagi matn kelib chiqadi.O'quvchilar bunda guruh bo'lib birgalikda hamkorlikda faoliyat yuritadilar.

"Mozaika" metodi.

O'quvchilar 4 kishilik kichik guruhlarga bo'linadilar. Har bir kichik guruhlarga paxtazor, mevalar tasvirlangan rasmli konvertlar tarqatiladi. O'quvchilar rasmni "Mozaika" usuli yordamida yig'adilar.Yig'gan rasmlari asosida matn tuzib yozadilar.Yozgan matnlarini boshqa guruhlarga tushuntirib berishlari lozim.

NATIJA VA MUHOKAMA. Ona tili darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun darsda faqat berilgan matnlarni o'qish va mazmuni bilan tanishtirib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'liq savollar bilan murojaat qilib o'quvchi tasavvurlarini shakllantirib olish zarur. O'quvchini ona tili darslarida berilgan mashqlarni o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'radi. Ona tili darslarida berilgan mashqlar bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadi, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradi, hissiyotni o'tkirlashtiradi, aqlni charxlaydi, tasavvurlarini boyitadi hamda estetik zavq beradi. O'quvchilarning ijodiy kuchi va bilish qobiliyatini shakllantirishda, mustaqil ishlash malakasini oshirishda savol va topshiriqlar ustida ishlash o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan barkamol inson sifatida tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslar bilan o'qish fani uyg'unlashgan holda olib borish asosida o'quvchilarni badiiy asar turlaridan hikoya,

she’r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar hamda mashqlarni amaliy ravishda o‘rganish bilan birgalikda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantiriladi.

XULOSA. Ona tili fanida beriladigan mashqlarni hamkorlikda bajarish o‘quvchilarni ijtimoiy va til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarga bu orqali mustaqil fikrlash ko‘nikmasi, do‘stlarini hurmat qilish, o‘zaro erkin fikr almashish kabi xislatlarni shakllantiradi. O‘quvchilarning faolligi, fikr bildirishdagi erkinligi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali darslar samaradorligi oshadi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ш. Мирзиёев. “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.Халқ сўзи. 2016-йил, 8-декабрь. 243-сон.

2. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2021-yil 118-bet

3. G‘ofurov K., Qodirova S. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021-yil 97-bet

4. J.Dyui. “Demokratiya va ta’lim”. – Toshkent: Fan, 2019.

5. Vygotsky, L.S. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”. – Harvard University Press, 1978.

6.Hamkorlikda o‘qitish metodlari: metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2022-yil

7. Ushiniskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar.-Toshkent “O‘zdavnashr” 1959-yil 49-bet